

**O‘ZBEKISTON VA XITOYNING “BIR KAMAR, BIR YO‘L” TASHABBUSI
DOIRASIDA IQTISODIY INTEGRATSIYASI****Mirabbos Mirg'iyosov**

Tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya Ushbu maqolada Xitoy tomonidan 2013-yilda ilgari surilgan “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusining mazmun-mohiyati, uning global geoiqtisodiy hamda geosiyosiy ahamiyati, shuningdek, O‘zbekiston uchun iqtisodiy integratsiya imkoniyatlari keng yoritiladi. Tadqiqotda tashabbusning infratuzilmaviy, savdo, transport-logistika va investitsion jihatlarini tahlil qilinib, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O‘zbekiston uchun ushbu tashabbusning strategik o‘rni asoslab beriladi. O‘zbekistonning tashabbusdagi ishtiroki, ikki tomonlama savdo aylanmasining dinamikasi, Xitoy investitsiyalarining kirib kelishi va iqtisodiyot tarmoqlariga ko‘rsatgan ta’siri statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar *“Bir kamar, bir yo‘l”, Xitoy, O‘zbekiston, geoiqtisodiy integratsiya, transport-logistika, investitsiya, infratuzilma, Ipak yo‘li, tashqi savdo, Xitoy-O‘zbekiston hamkorligi.*

Kirish “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi Xitoy tomonidan 2013-yilda ilgari surilgan bo‘lib, uning maqsadi Osiyo, Yevropa va Afrika davlatlari o‘rtasidagi transport, savdo va investitsiya aloqalarini kuchaytirishdir. O‘zbekiston mazkur tashabbusning Markaziy Osiyodagi muhim ishtirokchilaridan biridir. Chunki O‘zbekiston geografik joylashuvi, transport yo‘llari kesishgan markazda joylashgani bilan ajralib turadi. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik yildan-yilga kengayib bormoqda. Xitoy O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkorlaridan biri sanaladi. Ikki davlat o‘rtasidagi savdo hajmi so‘nggi yillarda barqaror oshib bormoqda. Xitoy O‘zbekiston uchun gaz, neft mahsulotlari, rangli metall, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va to‘qimachilik mahsulotlarining asosiy bozorlaridan biridir. O‘z navbatida, Xitoy O‘zbekistonga texnologiya, mashina-uskunalar, elektronika, transport vositalari va texnika yetkazib beradi.

Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik transport-logistika tizimini yaxshilashga ham xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyodan Xitoyga va Xitoydan Yevropaga olib boradigan yangi tranzit koridorlari shakllanmoqda. Bu O‘zbekiston uchun tranzit daromadlarini oshirishga va mintaqaviy aloqalarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani yanada kuchaytirmoqda. Hamkorlik savdo, transport, energetika va investitsiyalar sohalarida faol rivojlanmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston iqtisodiyotining

modernizatsiyasi, yangi texnologiyalarni jalb qilish va xalqaro bozorlarga chiqishni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

ASOSIY QISM Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi 2013-yilda Prezident Si Szinpin tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, uning negizida qadimiy Buyuk Ipak yo‘lining tarixiy merosini zamonaviy geoiqtisodiy strategiya bilan uyg‘unlashtirish g‘oyasi yotadi. Tashabbusning mohiyati - Osiyo, Yevropa, Afrika va boshqa mintaqalar o‘rtasida transport, savdo va investitsion aloqalarni kuchaytirish, yangi infratuzilma tarmoqlarini yaratish, global iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishdir. Xitoy bu tashabbus orqali quruqlikdagi “Ipak yo‘li iqtisodiy kamari” va dengizdagi “XXI asr dengiz Ipak yo‘li” yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirgan holda, o‘zining ishlab chiqarish quvvatlari, kapitali va texnologiyalarini chet el bozorlariga chiqarishga intilmoqda.

“Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi geografik jihatdan o‘ta keng qamrovli bo‘lib, Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa, Afrika hatto Lotin Amerikasi davlatlarini ham o‘z ichiga olgan. Bugungi kunga kelib, 150 dan ortiq davlat va ko‘plab xalqaro tashkilotlar turli shakldagi hamkorlik bitimlarini imzolagan. Tashabbus doirasida temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari, portlar, energetika inshootlari, raqamli infratuzilma, logistika markazlari, sanoat zonalar qurilmoqda. Temir yo‘l orqali Xitoy-Yevropa yuk poyezdlari qatnovi kuchaydi, Pokiston bilan CPEC loyihasi, Markaziy Osiyo orqali multimodal transport yo‘laklari vujudga kelmoqda. Jahon banki mutaxassislari ushbu tashabbusni “savdo xarajatlarini kamaytiruvchi, transport vaqtini qisqartiruvchi va global ta‘minot zanjirlarini optimallashtiruvchi omil” sifatida baholashadi. Ularning fikricha, to‘g‘ri rejalashtirilgan infratuzilma loyihalari ishtirokchi mamlakatlar iqtisodiy o‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, logistika va tranzit imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin[1].

Ko‘plab olimlar “Bir kamar, bir yo‘l” ni nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ilmiy hamkorlikni kuchaytiruvchi tashabbus deb biladilar. Masalan, tarixchi Peter Frankopan bu tashabbusni “yangi global Ipak yo‘llari davri” deb atab, u Xitoyning tarixiy xotira va sivilizatsion o‘ziga xosligini zamonaviy geopolitik strategiya bilan uyg‘unlashtirishga intilishi sifatida talqin qiladi[2]. Yana bir mutaxassis Jonatan Hillmanning fikriga ko‘ra “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi Xitoy tomonidan “infratuzilmaga asoslangan geosiyosiy strategiya” bo‘lib, uning asosiy maqsadi xorijiy davlatlarda ta‘sir doirasini kengaytirishdir. Uning ta‘kidlashicha, Xitoy portlar, yo‘llar, temir yo‘llar orqali strategik ustunlik yaratishga urinadi[3].

“Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi zamonaviy dunyodagi eng yirik geoiqtisodiy loyihalardan biri bo‘lib, uning atrofidagi bahslar Xitoyning global maydondagi o‘rni, yangi iqtisodiy markazlarning shakllanishi va global boshqaruv tizimining qayta formatlanishi jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Tashabbusning muvaffaqiyati esa Xitoy va ishtirokchi davlatlarning shaffoflik, qarz boshqaruvi, ekologik standartlar va mahalliy manfaatlarni muvozanatli hisobga olishi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusini dastlabki bosqichlardan boshlab faol qo‘llab-quvvatlagan va unda ishtirok etgan mamlakatlardan biridir. Masalan, O‘zbekiston 2017-yilda Pekinda o‘tkazilgan ilk “Bir kamar, bir yo‘l” sammitidayoq qatnashib, ushbu doirada keng qamrovli hamkorlik bitimlarini imzolagan. Xususan, Birinchi “Bir kamar, bir yo‘l” forumida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin uchrashuvi chog‘ida ikki mamlakat **115 ta loyihaviy bitim** imzolagan bo‘lib, ularning umumiy qiymati **23 mlrd AQSh dollaridan** ortiq edi[4]. Bu bitimlar elektr energetikasi, neft-gaz sanoati, kimyo, arxitektura, to‘qimachilik, farmatsevtika, transport va qishloq xo‘jaligi kabi ko‘plab sohalardagi hamkorlikni nazarda tutgan holda, O‘zbekiston va Xitoy integratsiyasining ko‘lamdor rejalarini ko‘rsatib berdi.

O‘zbekiston tarixiy Ipak yo‘li merosiga ega mamlakat sifatida “Bir kamar, bir yo‘l”ni birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatladi. O‘zbekiston Prezidenti 2017, 2019 hamda 2023-yillarda Pekinda o‘tgan barcha uchta xalqaro “Bir kamar, bir yo‘l” forumlarida shaxsan ishtirok etgan. Bu ishtirok mamlakat rahbariyatining integratsiyaga sodiqligi va tashabbus imkoniyatlariga ishonchidan dalolat beradi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalari “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi integratsiya ortidan jadal sur‘atlarda kengaymoqda. Raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, 2018-yilda ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi qariyb 6,26 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 14 mlrd dollardan oshdi[5]. 2023-yilda O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 13,7 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich avvalgi yilga nisbatan **51,5%** o‘shish demakdir, ya‘ni integratsiya natijasida savdo hajmining yillik o‘shish sur‘ati juda yuqori bo‘lmoqda. Xususan, 2023-yilda O‘zbekiston Xitoyga **2,5 mlrd dollarlik** mahsulot eksport qilgan (o‘shish ~0% atrofida), Xitoydan import esa **11,3 mlrd dollarga** yetib, **75,2%** ga oshgan. Natijada Xitoy O‘zbekistonning birinchi raqamli savdo sherigiga aylandi – 2023-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasida Xitoy ulushi **21,9%** ni tashkil qildi (eksportda 10,1%, importda esa 29,5%) Bu holat, o‘z navbatida, “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi faollik hamda Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarning rivojlanayotganligidan dalolat.

O‘zbekiston-Xitoy iqtisodiy integratsiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi va sanoat sohasidagi ko‘p qirrali hamkorlikdir. Xitoy sarmoyalari O‘zbekiston iqtisodiyotiga jadal kirib kelmoqda va mamlakatni modernizatsiya qilishda katta rol o‘ynamoqda. 2022-yil yakuniga ko‘ra, Xitoyning O‘zbekistonga kiritgan jami to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarining yig‘ilgan hajmi 4,5 mlrd AQSh dollariga yetdi. Yil davomida yangi jalb qilingan Xitoy investitsiyalari esa 370 mln dollar atrofida bo‘ldi. Ushbu ko‘rsatkichlar Xitoyning O‘zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritish bo‘yicha jiddiy majburiyat olganini anglatadi. Taqqoslash uchun, 2010-yillar boshlarida Xitoy investitsiyalari deyarli mavjud bo‘lmagan (yoki juda oz miqdorda edi), hozir esa ular eng yirik xorijiy investitsiyalar

manbalaridan biriga aylangan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 2 000 dan ortiq Xitoy kapitalliga ega korxonalar faoliyat yuritmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya – “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi kontekstida - kutilgan natijalarni bermoqda va bu hamkorlik har ikki tomon uchun manfaatli ekanini isbotlamoqda. O‘zbekiston “Bir kamar, bir yo‘l” ni boshidanoq qo‘llab-quvvatlagan holda, o‘z milliy manfaatlariga xizmat qildiradi: mamlakat infratuzilmasi yaxshilanmoqda, sanoat salohiyati ortmoqda, xalqaro savdodagi o‘rni mustahkamlanmoqda. Kelajakda ushbu integratsiya yanada chuqurlashishi kutilmoqda - 2023-yil oktabr oyida bo‘lib o‘tgan uchinchi BRI xalqaro forumida O‘zbekiston va Xitoy yaqin 5 yil ichida o‘zaro savdo hajmini 20 mlrd dollarga yetkazish rejalarini tasdiqladilar. Bu ulkan maqsadga erishish uchun yuqorida sanab o‘tilgan tavsiyalar va ehtiyot choralari amal qilgan holda, hamkorlik yo‘lidan dadil odimlash lozim.

Xulosa Xitoyning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusi bugungi kunda jahonning eng yirik geoiqtisodiy loyihalaridan biri sifatida global transport, savdo va investitsiya tizimining qayta shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston mazkur tashabbusning Markaziy Osiyodagi muhim ishtirokchilaridan biri bo‘lib, o‘zining qulay geografik joylashuvi, tarixiy Ipak yo‘li merosi va tranzit salohiyati bilan ajralib turadi. 2017-2023-yillar davomida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo hajmi ikki barobardan ziyod oshgani, Xitoyning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari 4,5 mlrd dollardan ortgani, mamlakatda 2000 dan ortiq Xitoy korxonalari faoliyat yuritayotgani integratsiyaning amaliy natijalarini yaqqol ko‘rsatadi.

Bu jarayonlar O‘zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi, yangi texnologiyalarning kirib kelishi, sanoat diversifikatsiyasining chuqurlashuvi va xalqaro bozordagi pozitsiyalarining mustahkamlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, transport-logistika sohasidagi o‘zgarishlar - multimodal yo‘laklar, yangi temir yo‘l liniyalari, logistika markazlari va tranzit yo‘nalishlarining shakllanishi - O‘zbekistonning mintaqaviy transport tizimidagi strategik rolini kuchaytirmoqda.

O‘zbekistonning “Bir kamar, bir yo‘l” tashabbusidagi faolligi milliy manfaatlariga to‘la mos keladi: zamonaviy infratuzilma yaratilmoqda, xalqaro transport bog‘liqligi kuchaymoqda, investitsiyalar oqimi ortmoqda, sanoat kooperatsiyasi rivojlanmoqda, eksport imkoniyatlari kengaymoqda va mamlakatning xalqaro iqtisodiy tizimdagi o‘rni mustahkamlanmoqda. Bu integratsiya istiqbolda O‘zbekistonni mintaqaviy iqtisodiy markazlardan biriga aylantirishi, iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishi va global iqtisodiy aloqalarda yanada faol ishtirok etishiga zamin yaratishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Francois Mulabdic, Alen Murray, Siobhan Rocha, Michele Ruta, 2018.
<https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/cd51a35e-3ed6-570f-a98d-d17450a45920>
2. Peter Frankopan. The Silk Roads: A New History of the World. 2015.
<https://www.history.ox.ac.uk/article/peter-frankopan-the-silk-roads-a-new-history-of-the-world-bl>
3. Hillman, J. E. (2018). The Emperor’s New Road: China and the Project of the Century. Yale University Press. p-22-47
4. I.Qoraboyev. The Belt and Road Initiative and Uzbekistan’s New Strategy of Development: Sustainability of mutual relevance and positive dynamics.
https://www.researchgate.net/publication/324560481_The_Belt_and_Road_Initiative_and_Uzbekistan's_New_Strategy_of_Development_Sustainability_of_mutual_relevance_and_positive_dynamics
5. Qian Zhou. Navigating China-Uzbekistan Investment and Trade Opportunities. 2024. <https://www.china-briefing.com/news/navigating-china-uzbekistan-investment-and-trade-opportunities/#:~:text=and%20the%20second,exports>